



BANK FAOLIYATIDA BARQAROR MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATINI OSHIRISH YO‘LLARI

XOLBAYEV SAMANDAR ABDIQULOVICH

Annotatsiya: Xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uni ta'minlashning metodologik asoslari ilmiy jihatdan tadqiq qilindi. Bank moliyaviy barqarorligini ta'minlashda yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar bo'yicha shakllantirilgan zaxiralar ularga ajratilgan kreditlar bo'yicha shakllantirilgan zaxira miqdoriga chegara belgilash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, bank tizimi, moliya xizmatlari, transformatsiya, chakana xizmat.

Аннотация: Финансовая устойчивость коммерческих банков и методологические основы ее поддержания были научно исследованы зарубежными и отечественными экономистами. В целях обеспечения финансовой устойчивости банка, резервов, формируемых по кредитам, выданным юридическим и физическим лицам, сформулированы научные предложения и практические рекомендации по установлению лимита размера резервов, формируемых по кредитам, выданным им.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковская система, финансовые услуги, трансформация, розничное обслуживание.

Abstract: The financial stability of commercial banks and the methodological basis of its maintenance were scientifically researched by foreign and domestic economists. In order to ensure the financial stability of the bank, the reserves formed on the loans allocated to legal entities and individuals have been formulated scientific proposal and



practical recommendations on setting a limit to the amount of reserves formed on the loans allocated to them.

Key words: Commercial banks, banking system, financial services, transformation, retail service.

Jahonda bank tizimi barqarorligini ta'minlash va oshirish orqali xorijiy investorlarni jalb qilish, banklarni xalqaro moliya-bank bozorlariga chiqishini ta'minlash, xalqaro tan olingan kompaniyalarning reytinglariga erishish, moliyaviy barqarorlik metodologiyasini takomillashtirish bilan bog'liq kabi dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro valyuta fondi hisobotiga ko'ra —AQShda 2023 yil 4 ta tijorat banki (Silicon Valley Bank, Signature Bank, First Republic Bank, Heartland Tri-State Bank) bankrotga uchrab, ularning umumiy aktivlari 548,6 mlrd AQSh dollari, depozitlari summasi 367,6 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Shveysariyaning eng yirik banklaridan biri bo'lgan Credit Suissedan 68,6 mlrd AQSh dollar miqdoridagi sof aktivlarining chiqib ketishi ko'zatildi. Shveysariya milliy banki (SNB) Credit Suisse bankning qisqa muddatli likvidliligini favqulodda qo'llab-quvvatlash uchun 54 mlrd AQSh dollari ajratdi. Natijada UBS banki tomonidan Credit Suisseni 3,2 mlrd dollar evaziga sotib olindi. Bank tizimi barqarorligini ta'minlash, uning aniq me'yorlarini o'rnatish, bank tizimini jahon moliya tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirish hamda moliyaviy barqarorligini oshirish orqali bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishni taqozo etmoqda.

Jahonda bank tizimi barqarorligini ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishga erishish, bank risklarini kamaytirish orqali bank tizimi daromadliligini oshirish, moliyaviy barqarorlik koeffitsientlari metodologiyasini takomillashtirish, banklarning rentabellik ko'rsatkichlarini o'sib borishini ta'minlash, bank faoliyatida muammoli kreditlarni pasaytirish orqali bank tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bank tizimi barqarorligini aniqlashda zamonaviy modellardan, stress-testlardan foydalanish, bank moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ajratilgan kreditlar bo'yicha shakllantirilgan zaxira miqdori ularga ajratilgan kreditlarning



belgilangan chegarasidan oshib ketmasligi, likvidlilik risklarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi bo'yicha tasniflash, bank tizimi barqarorligini aniqlashda xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan usullardan foydalanish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Sof barqaror moliyalashtirish me'yoriga o'rnatilgan minimal talab 100 foiz etib belgilangan bo'lib, 2022 yil oxirida 115,6 foizga yetgan. 2022 yilda o'zoq muddatli moliyalashtirish hajmiga mos ravishda barqaror manbalarni shakllantirish choralarining ham ko'rib borilishi bank tizimida sof barqaror moliyalashtirish me'yorining 2021 yildagi 115 foizdan 116 foizgacha oshishiga xizmat qildi. Ushbu ko'rsatkich milliy valyutada 117 foizni, xorijiy valyutada 113 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi daromadlari va**harajatlari, mlrd sumda****3.4-jadval**

Bank tizimi daromad va harajatlari	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023
Foizli daromadlar	14 517	25 500	37 067	47 392	61 728
Foizli harajatlar	8 355	15 602	23 019	30 796	37 566
Foizli marja	6 162	9 898	14 048	16 595	24 162
Foizsiz daromadlar	6 564	9 619	11 801	17 251	33 182
Foizsiz harajatlar	1 343	2 856	3 516	4 944	11 812
Operatsion harajatlar	5 583	6 814	8 145	10 998	14 877
Foizsiz daromad (zarar)	-362	-51	140	1 309	6 494
Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	1 746	3 856	6 354	12 221	13 863
Boshka aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	196	299	873	333	4 213



Solik tulangunga kadar sof foyda (zarar)	3 858	5 693	6 961	5 351	12 579
Foyda soligini tulash harajatlari	659	1 012	1 318	1 465	2 587
Foyda bo'yicha to'zatislar	0	0		0,0	1,2
Sof foyda (zarar)	3 200	4 681	5 642	3 885	9 993

Sunggi besh yilda mamlakat bank tizimi daromadlilik darajasini tahlil qiladigan bo'lsak, foizli marja deyarli 4 barobarga usib, 2023 yil boshiga 24,2 trln sumni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

Foizsiz daromadlar esa sezilarli darajada ijobiy natijalarni kayd etgan. 2018 yilda 362 mlrd sum zarar bo'lsa, 2022 yilda 6,5 trln sum foyda bilan yakunlagan. Mazkur natijaga erishishning asosiy sababi foizsiz daromadlarning 5 martaga oshishi hisoblanadi. K,olaversa, operatsion harajatlarning rejali va samarali boshqarilishi ham muxim rol uynagan.

Operatsion samaradorlik ko'rsatkichi 2022 yilda 33 foizga teng bo'lib, xalqaro amaliyotda belgilangan maksimal makbo'l darajaga (50 foiz) nisbatan ijobiy shakllandi. Operatsion samaradorlik ko'rsatkichining yaxshilanishi bank tizimiga zamonaviy texnologiyalarning keng joriy etilayotganligi va biznes jarayonlarining avtomatlashtirilayotganligi xususan, mikroqarzlar olish, omonatlarni boshqarish, valyuta ayirboshlash, kommunal va boshka tulovlarni tulash mobil ilovalar orqali amalga oshirilayotganligi bilan bog'liq.


Ammo kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar va boshka aktivlar bo'yicha zararlarni qoplash zaxirasi summasining keskin ortishi bank tizimi barqarorligi uchun xatarli hisoblanadi. Fikrimizcha, muammoli aktivlar, xususan, muammoli kreditlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, bank tizimi samaradorligini oshirish, kredit risklarini nazorat qilish va monitoring jarayonini takomillashtirish zarur.



Bank tizimining sof foyda ko'rsatkichi 2021 yilda keskin pasayishni kayd etgan, buning asosiy sababi pandemiya sharoitida kreditlarning qaytarilishini kechiqtirish, muddatini o'zaytirish va mijozlarning moliyaviy holatidagi salbiy o'zgarishlar hisoblanadi.

2022 yilda aktivlar sifatining yaxshilanishi va kreditlar bo'yicha foizli daromadlarning oshishi hisobiga bank tizimi rentabellik darajasi kutarildi. 2022 yilda sof foizli hamda foizsiz daromadlar (mos ravishda 4,9 va 4,3 foiz) hisobiga bank tizimi bo'yicha aktivlar rentabelligini oshiruvchi, aktivlar bo'yicha extimoliy yuqotishlar (-3,6 foiz) hamda operatsion harajatlar (-3,0 foiz) esa pasaytiruvchi omillardan bo'ldi.

Bank tizimida sof foizli daromadlarining oshishi tijoriy xizmatlar kulamining ortishi, imtiyozli va direktiv kreditlar ulushining kamayib borishi, aktivlar sifatining yaxshilanishi bilan izohdanadi.



**1.3- rasm. Bank tizimi aktivlar rentabelligi (ROA) dinamikasi ,
foizda**

Bank aktivlar rentabelligi darajasi bank tizimining barqarorligini ko'rsatadigan asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Uning kanchalik yuqori bo'lishi bank reurslaridan




samarali foydalanganligini ifodalaydi. Banklar tomonidan aktivlardan foydalanish samaradorligini bax,olovchi aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi 2021 yilga kelib, 2020 yildagi 2,2 foizdan 1,3 foizga pasaydi. 2019-2021 yillarda rentabellik darajasi 2,0-2,2 foizni tashkil etgan.

2022 yil yakunlari bo'yicha bank tizimi aktivlar rentabelligi yil boshiga nisbatan kariyb 2 barobarga oshib, 2,5 foizni va kapital rentabelligi 13,3 foizni tashkil etdi.

2022 yilda sof foizli xmda foizsiz daromadlar (mos ravishda 4,9 va foiz) hisobiga bank tizimi bo'yicha aktivlar rentabelligini oshiruvchi, aktivlar bo'yicha exdimoliy yuqotishlar (-3,6 foiz) xmda operatsion harajatlar (-3,0 foiz) esa pasaytiruvchi omillardan bo'ldi.

Aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi dunyoning yirik tijorat banklarida aktivlar xdjmining ko'pligi hisobiga nisbatan kichiq darajani kayd etgan. 2023 yil boshiga AQSHning JP Morgan bankida 0,94 foiz, Bank of America bankida 0,83 foizni tashkil etgan. Yevropa Ittifoki davlatlarida eng yuqori ko'rsatkichlarni Sloveniya (1,9 foiz), Ruminiya (1,8 foiz), Bolgariya (1,7 foiz), Islandiya (1,4 foiz) va Ispaniya (1,2 foiz) davlatlari bank tizimi kayd etgan



1.4- rasm. Bank tizimi kapital rentabelligi (ROE) dinamikasi, foizda



Bank tizimi kapital rentabelligi banklarda mavjud kapitaldan kay darajada samara foydalanilganligini ifodalaydi. Kapital rentabelligi 2019-2020 yillarda barqaror (16 foiz), 2021-2022 yillarda pasayish dinamikasiga ega. 2022 yilda keskin oshganligini ko'rish mumkin. Bunda, kapital rentabelligi o'zgarishida sof foizli marja (3,4 foiz), foizsiz daromadlarning aktivlarga nisbati (6 foiz), leveraj koeffitsienti (0,6 foiz), foydaga nisbatan solik yukining kamayishi (0,8 foiz) kabi omillar ijobiy ta'sir etgan bo'lsa, zaxiralarning usishi (-2,5 foiz) hamda foizsiz harajatlarning majburiyatlarga nisbati (-1,1 foiz) salbiy ta'sir ko'rsatdi. Fikrimizcha, buning asosiy sababi banklarda muammoli kreditlarning kamayishi, ularni balansdan chiqarishi va bank foydasining oshishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Национальные банковские системы. Учебник. Под ред. проф. В.И. Рыбина.-М.: Инфра-М, 2010. –С.49.
2. Nesterenko Ye.K. Konsepsiya modernizatsii kreditnoy deyatel'nosti kommercheskogo banka. – Saratov: SGSEU, 2005. – S. 37-38.
3. Novikov A.M, Novikov D.A. Metodologiya naychnogo issledovaniya. Moskva 2010 – S. 6
4. Nort D. Instituty i institutsionalnie izmeneniya i funktsionirovaniye ekonomiki. Per. s angl. – M.: Fond ekonomicheskoy knigi «Nachala», 1997. – S. 68.